Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University

2026 Vol. 56 No. 3
THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION
https://philmatt.uzswlu.uz

Received: August 1, 2026
Accepted: September 23, 2026
Available online: September 25, 2026

https://doi.org/10.36078/987655603

Original research article / Original tadqiqot maqolasi

PRINCIPLES OF ADEQUACY AND EQUIVALENCE IN RENDERING *QISAS-I RABGHUZI* IN MODERN UZBEK

Ranojon ZARIPOVA

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0009-0008-8834-1761
Email: ranobonu51@mail.ru

ABSTRACT

The aim of this study is to analyze the application of adequacy and equivalence principles in translating Nosiruddin Burhonuddin Rabghuzi's *Qisas-i Rabghuzi*, created in the early fourteenth century, from Old Turkic–Chagatai into modern Uzbek, and to identify ways of preserving the semantic, linguistic, and stylistic features of the historical literary text. The research objectives include examining modern equivalents of archaic lexical units, identifying semantic changes, analyzing the translation of religious and Sufi terminology, and investigating grammatical adaptation and the preservation of literary devices.

The study employs comparative-analytical, lexical-semantic, grammatical, and stylistic analysis methods. Archaic words, their modern Uzbek equivalents, and certain lexical forms preserved in the Khorezm dialect are examined through examples from the text. Particular attention is paid to replacing archaic expressions with contemporary equivalents, explaining religious terms, adapting case and verb forms to standard Uzbek, and simplifying complex syntactic structures. The findings highlight the importance of conveying meaning clearly while preserving the historical character and literary qualities of the original. Specifically, maintaining saj (rhymed prose) and narrative tone, as well as considering the historical continuity of certain lexical units, are identified as important aspects of translation.

The study concludes that the combined application of adequacy and equivalence principles helps preserve the meaning, cultural characteristics, and literary impact of historical texts. Translating ancient written works into modern Uzbek requires a balance between historical context, linguistic norms, and comprehensibility for contemporary readers. The article presents linguistic and stylistic observations supported by textual examples; however, it does not provide separate statistical or experimental evaluation results. Therefore, its conclusions should be interpreted within the scope of textual analysis. This approach emphasizes that translators must consider not only lexical correspondence but also context, genre, and reader comprehension.

Key words: adequacy, equivalence, literary translation, Old Turkic language, archaic lexis, religious terminology, translation strategies, linguistic analysis.

For citation:
Zaripova, R. (2026). Principles of adequacy and equivalence in rendering *Qisas-i Rabghuzi* in modern Uzbek. *Philology Matters*, *56*(3), 161–177. https://doi.org/10.36078/987655603.

© Ranojon Zaripova, 2026. Licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

“QISASI RABG‘UZIY” ASARINI ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIGA O‘GIRISHDA ADEKVATLIK VA EKVIVALENTLIK TAMOYILLARI

Ra’nojon ZARIPOVA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning XIV asr boshlarida yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarini qadimiy turkiy-chig‘atoy tilidan zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girishda adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarining qo‘llanilishini tahlil qilish hamda tarixiy-badiiy matnning mazmuniy, lingvistik va uslubiy xususiyatlarini saqlash yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari arxaik leksik birliklarning zamonaviy muqobillarini ko‘rib chiqish, semantik o‘zgarishlarni aniqlash, diniy-tasavvufiy atamalar tarjimasini tahlil qilish, grammatik shakllarning moslashtirilishi va badiiy ifoda vositalarining saqlanishini yoritishni qamrab oladi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, leksik-semantik, grammatik va uslubiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Asardagi qadimiy so‘zlar, ularning zamonaviy o‘zbek tilidagi muqobillari hamda ayrim birliklarning Xorazm shevasida saqlangan shakllari matndan olingan misollar asosida o‘rganilgan. Tahlilda arxaik birliklarni zamonaviy so‘zlar bilan almashtirish, diniy atamalarni izohlash, kelishik va fe’l shakllarini adabiy til me’yorlariga moslashtirish, shuningdek, murakkab sintaktik qurilmalarni soddalashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Natijalar tarjimada mazmunni tushunarli yetkazish bilan birga, asarning tarixiy ruhini va badiiy xususiyatlarini imkon qadar saqlash muhimligini ko‘rsatadi. Xususan, saj va hikoyaviy ohangni asrash, ayrim leksik birliklarning tarixiy davomiyligini hisobga olish tarjima qarorlarining muhim jihatlari sifatida yoritilgan.

Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarini uyg‘un qo‘llash tarixiy matnning mazmuni, milliy-madaniy xususiyatlari va badiiy ta’sirini saqlashga xizmat qiladi. Qadimiy yozma yodgorliklarni zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girishda tarixiy kontekst, til me’yorlari va kitobxon uchun tushunarlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarur. Maqolada misollar asosida lingvistik va uslubiy kuzatishlar berilgan, biroq alohida statistik yoki eksperimental baholash natijalari keltirilmagan. Shu sababli xulosalar matniy tahlil doirasida ehtiyotkorlik bilan talqin qilinadi. Ushbu yondashuv tarjimonning faqat so‘zma-so‘z muvofiqlikni emas, balki kontekst, janr va o‘quvchi idrokini ham hisobga olishini nazarda tutadi. Qadimiy birlikning ma’nosi zamonaviy muqobil orqali to‘liq ifodalanmasa, izohlash yoki kontekstual moslashtirish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bunday qarorlar matnning tarixiy mazmunini buzmasdan, uni bugungi kitobxon uchun anglashiladigan shaklda yetkazishga qaratiladi. Maqoladagi tahlil aynan shu tarjima muammolarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: adekvatlik, ekvivalentlik, badiiy tarjima, qadimiy turkiy til, arxaik leksika, diniy terminologiya, tarjima strategiyalari, lingvistik tahlil.

ПРИНЦИПЫ АДЕКВАТНОСТИ И ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ПРИ ПЕРЕДАЧЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КИСАСИ РАБГУЗИ» НА СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Раъножон ЗАРИПОВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Цель исследования заключается в анализе применения принципов адекватности и эквивалентности при переводе произведения «Кисаси Рабгузи», созданного в начале XIV века Носируддином Бурхониддином Рабғузи, с древнетюркско-чагатайского языка на современный

узбекский язык, а также в определении способов сохранения смысловых, языковых и стилистических особенностей историко-художественного текста. Задачи исследования включают рассмотрение современных эквивалентов архаических лексических единиц, выявление семантических изменений, анализ перевода религиозной и суфийской терминологии, а также изучение грамматической адаптации и сохранения художественных средств.

В исследовании применяются сравнительно-аналитический, лексико-семантический, грамматический и стилистический методы анализа. На основе примеров из текста рассматриваются архаические слова, их современные узбекские эквиваленты и отдельные лексические формы, сохранившиеся в хорезмском диалекте. Особое внимание уделяется замене устаревших выражений современными эквивалентами, разъяснению религиозных терминов, адаптации падежных и глагольных форм к нормам литературного узбекского языка, а также упрощению сложных синтаксических конструкций. Результаты показывают, что при переводе важно не только ясно передавать содержание, но и по возможности сохранять исторический колорит и художественные особенности оригинала. В частности, сохранение сажа (рифмованной прозы) и повествовательной интонации, а также учёт исторической преемственности отдельных лексических единиц рассматриваются как важные аспекты перевода.

В заключение отмечается, что комплексное применение принципов адекватности и эквивалентности способствует сохранению содержания, культурных особенностей и художественного воздействия исторических текстов. Перевод древних письменных памятников на современный узбекский язык требует соблюдения баланса между историческим контекстом, языковыми нормами и понятностью текста для современного читателя. Статья содержит лингвистические и стилистические наблюдения, подкреплённые текстовыми примерами, однако отдельные результаты статистической или экспериментальной оценки не представлены. Поэтому выводы следует интерпретировать в рамках текстового анализа. Данный подход предполагает учёт не только лексических соответствий, но и контекста, жанра и особенностей восприятия читателя. Если современный эквивалент не передаёт полного значения архаической единицы, может потребоваться пояснение или контекстуальная адаптация, позволяющая сохранить исторический смысл без искажения.

Ключевые слова: адекватность, эквивалентность, художественный перевод, древнетюркский язык, архаическая лексика, религиозная терминология, стратегии перевода, лингвистический анализ.

KIRISH

Qadimiy qo‘lyozmalar matnlarini tadqiq qilish tarjima nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, lingvistik, uslubiy, tarixiy va kommunikativ masalalarni o‘rganish, shuningdek, tarixiy matnlarni boshqa tilga o‘girish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Qadimiy qo‘lyozmalarni tadqiq etish va ularning mazmunini zamonaviy kitobxonga yetkazish tarjima nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Bunday matnlar ilmiy-tarixiy, madaniy, tarixiy-huquqiy, moliyaviy va diplomatik diskursga oid xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi mumkin. Ularni tarjima qilishda tarixiy aniqlikni saqlash, mazmuniy izchillikni ta’minlash, fikrni mantiqiy ifodalash hamda matnning asl mohiyatini to‘g‘ri yetkazish muhim hisoblanadi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida Qur’oni karimda keltirilgan qissalar asosida payg‘ambarlarning hayoti va faoliyati badiiy talqin etilgan.

O‘zbek adabiy merosining muhim namunalaridan biri bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari jahon turkologiyasida ham qiziqish uyg‘otgan. Mazkur bebaho milliy merosning katta qismi V.V. Radlov, V.Tomsen, P.M. Melioranskiy,

S.Y. Malov, V.L. Kotvich, N.Fon Gabain, G.Ramstedt, A.N. Kononov, P.Sime, B.Atalay, E.N. Najib va R.R. Arat singari atoqli turkolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan [Fozilov, 2013].

Qadimiy turkiy til xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari ikki jilddan iborat bo‘lib, turkiy yozma adabiyotning qimmatli yodgorliklaridan hisoblanadi. Asar 1309-1310-yillarda yozilgan. Uni qadimiy adabiy merosimizning noyob namunalaridan biri sifatida baholash mumkin. Ushbu yozma yodgorlik adabiyotshunoslik, tilshunoslik va falsafa sohalari uchun muhim manba bo‘lish bilan birga, turkiy xalqlarning milliy qadriyatlari va an’analarini o‘rganishda ham alohida ahamiyatga ega.

Yozma yodgorlikda Odam Ato va Momo Havodan boshlab Muhammad alayhissalomgacha bo‘lgan payg‘ambarlarning hayoti, faoliyati va ezgu amallari hikmatlar hamda rivoyatlar orqali yoritilgan. Asarda diniy qarashlar, Sharq falsafasi va qadimiy turkiy madaniy an’analar o‘zaro uyg‘unlashgan.

Qadimiy turkiy til boyliklarini o‘zida mujassam etgan ushbu asarning o‘rganilishi va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi uning milliy adabiy meros sifatidagi ahamiyatini namoyon etadi. Asarning mustaqillik yillarida ta’lim mazmuniga kiritilishi tarixiy va adabiy merosni o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning ortgani bilan izohlanadi. Jumladan, Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning asaridan namunalar 9-sinf adabiyot majmuasiga kiritilgan [Rabg‘uziy, 2013].

“Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek nasriy adabiyotining dastlabki yirik namunalaridan biri hisoblanadi. El orasida qadimdan mashhur bo‘lgan ushbu asar “Payg‘ambarlar qissasi” yoki “Avliyolar qissasi” nomlari bilan ham yuritiladi [Rabg‘uziy, 2015]. Unda Qur’oni karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar, jumladan, Odam Atodan Muhammad alayhissalomgacha bo‘lgan payg‘ambarlarning hayoti haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, asarda Luqmoni hakim va Iskandar Zulqarnayn kabi obrazlarga ham o‘rin berilgan.

N.Rabg‘uziy asarni qariyb bir yillik tinimsiz mehnat natijasida hijriy 710-yilning Hut oyida, milodiy 1310-yilda yakunlagan. Bu haqda asarning birinchi kitobidagi muqaddimada ma’lumot berilgan [Rabg‘uziy, 1991].

Muallif asarning ikkinchi kitobidagi she’riy xulosada ham o‘z ijodiy mehnati va asar yaratish jarayoniga munosabatini ifodalaydi. Unda boshqalar dunyo lazzatlari va moddiy boyliklar orttirishga intilgan bir paytda, o‘zining so‘zlardan gavhar va dur yaratganini ta’kidlaydi. Bu fikr orqali muallif badiiy ijod va ma’naviy merosning qadrini yuksak baholaydi. Darhaqiqat, “Qisasi Rabg‘uziy” asari asrlar davomida o‘z qimmatini saqlab kelayotgan yozma yodgorliklardan biridir. Uning turli davrlarda o‘rganilishi va boshqa tillarga tarjima qilinishi qadimiy turkiy adabiy merosni kengroq tanitishga xizmat qiladi.

O‘zgalar ko‘p olamunchoq tuzdilar el tizginib,
Man guvar, dur, yinju tuzdim, kezmadim yobon yozi.
Yetti yuz o‘n erdi yilg‘akim bitildi bu kitob,
Tug‘mish erdi ul o‘g‘urda Hut saodat yulduzi [Rabg‘uziy, 2015].

Darhaqiqat, allomaning o‘zi aytganidek, asarni duru gavharga qiyos etgulik.

Ayni paytda bu kitobni butun jahon ahli o‘qib o‘rganayotganligi buni tasdiqlaydi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, Britaniya muzeyida saqlanadi. E.I. Fozilovning ta’kidlashicha, mazkur nusxaning faksimile nashri mashhur matnshunos K.Gronbex tomonidan 1948-yilda Kopengagenda chop etilgan [Fozilov, 2013]. Bu holat asarning nafaqat mahalliy, balki Yevropa ilmiy doiralarida ham o‘rganilganidan dalolat beradi.

Rabg‘uziy asarining muhim qo‘lyozma nusxalaridan yana biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari institutining Sankt-Peterburg bo‘limida S-245 inventar raqami bilan saqlanadi. Ushbu nusxa XV yoki XVI asrda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi.

“Qisasi Rabg‘uziy”ning boshqa nusxalari keyingi davrlarda ko‘chirilganligi sababli ularning leksik tarkibida muayyan o‘zgarishlar yuz bergan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yodgorlik Toshkent va Qozon shaharlarida toshbosma usulida bir necha marta nashr etilgan. Asarning to‘liq matni ilk bor rus turkolog olimi N.I. Ilminskiy tomonidan 1859-yilda Qozonda nashr qilingan. Mazkur nashr keyingi davrda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasiga asoslanganligi sababli uning tili qadimiy nusxalardan ayrim jihatlari bilan farq qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida P.M. Melioranskiy, S.E. Malov, N.F. Katanov va N.F. Ostroumov kabi sharqshunos olimlar asarning ayrim parchalarini rus tiliga tarjima qilgan hamda lingvistik jihatdan o‘rganganlar. Xorijiy va rus olimlarining asarga bo‘lgan qiziqishi uning turkiy yozma adabiyot va til tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” milliy yozma merosimizning nodir namunalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. N.Rabg‘uziyning ushbu asari mustaqillik yillarida milliy adabiy merosni tiklash va keng o‘rganishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida kitobxonlarga qayta taqdim etildi.

1991-yilda “Yozuvchi” nashriyotida chop etilgan nashrni tayyorlashda XV asrga oid qo‘lyozmaning K.Gronbex tomonidan 1948-yilda Kopengagenda nashr qilingan faksimilesidan foydalanilgan. Nashrni filologiya fanlari nomzodlari A.Yunusov va H.Dadaboyev tayyorlagan, so‘zboshisini esa filologiya fanlari doktori, professor E.I. Fozilov yozgan. Oyatlar, hadislar va arab tilidagi she’rlarni kirill yozuviga o‘girish ishlarini filologiya fanlari nomzodi Y.Shokirov amalga oshirgan [Rabg‘uziy, 1991].

Asarning tili bugungi o‘zbek kitobxoni uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunga qadimiy turkiy tilning leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari sabab bo‘ladi. Shu bois asarni zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girish, uning mazmunini keng kitobxonlar ommasiga tushunarli shaklda yetkazish muhim vazifalardan biridir [Rabg‘uziy, 2013].

Oradan yetti-sakkiz asrga yaqin vaqt o‘tishi davomida turkiy adabiy tillar va turkiy tilda yaratilgan yozma manbalar shakllanish hamda rivojlanishning murakkab bosqichlarini bosib o‘tdi. Shu sababli qadimiy matnlarni zamonaviy tilga o‘girishda ularning tarixiy-lisoniy xususiyatlarini hisobga olish, ayni paytda, muallifning mazmuniy va uslubiy maqsadini saqlash talab etiladi.

Asarni o‘qish jarayonida Rabg‘uziy uni Navro‘z arafasida yakunlagani ham ramziy ma’no kasb etishi mumkinligi haqida o‘ylash mumkin. Asarda insonlarni bir-

biriga zulm qilmaslikka, nohaq qon to‘kmaslikka, harom ishlardan tiyilishga hamda hayo va odobni e’zozlashga undovchi o‘gitlar ilgari suriladi. Ushbu axloqiy qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asarda e’tiqod va iymonga sodiqlik, pok axloqning hirs, hasad, qonxo‘rlik va badnafslik ustidan g‘alabasi badiiy tasvirlanadi. Qadimiy turkiy so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lgan ushbu asarda payg‘ambarlar hayoti Sharq donishmandligi bilan uyg‘un holda, hikoyat va rivoyatlar vositasida yoritilgan.

Rabg‘uziy asarida Odam Atodan Muhammad alayhissalomgacha 124 ming payg‘ambar yashab o‘tgani haqidagi an’anaviy diniy qarash keltiriladi. Muallif ayrim payg‘ambarlarni bir davrda yashagan shaxslar sifatida tasvirlaydi. Jumladan, Muso va Xizr, Muso va Horun, Muso va Lut, Dovud va Ishmuil, Xizr va Ilyos, Maxaharqiyo va Yunus obrazlari o‘zaro zamondosh sifatida talqin etiladi. Rabg‘uziy Ilyos payg‘ambar hayotini bayon qilarkan, ular o‘rtasidagi suhbatlarni ham keltiradi:

— Sen Jalil tog‘ida turgan Ilyosmisan? – so‘radi Armala.

— Bale, – javob qildi Ilyos.

— Men sen aytayotgan so‘z uchun uch yuz yetmish payg‘ambarni o‘ldirdim. Ularning yetakchisi sensan. Men seni o‘ldi deb hisoblayman. Sen o‘z oyoqing bilan o‘limga kelding [Rabg‘uziy, 2015].

Demak, Rabg‘uziy o‘z asarida Ilyos payg‘ambar bilan bir davrda uch yuz yetmish payg‘ambar yashaganini ta’kidlaydi.

Asarning birinchi jildida Odam Ato, Shis, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Lut, Ya’qub, Yusuf va Muso alayhissalom kabi o‘n uch nafar payg‘ambarning hayoti va faoliyati haqida alohida qissalar keltirilgan [Rabg‘uziy, 2013].

Ikkinchi jildda esa Muso, Horun, Dovud, Ishmuil, Sulaymon, Maxaharqiyo, Yunus, Ilyos, Jirjis, Uzayr, Zakariyo, Yahyo va Iso alayhissalom, shuningdek, Luqmon, Zulqarnayn hamda Muhammad Rasulullo kabi o‘n yetti nafar payg‘ambar va tarixiy shaxsning hayoti hamda faoliyati yoritilgan.

Asarda payg‘ambarlarning xotinlari va onalari bo‘lgan, diniy-ma’naviy an’analarda alohida o‘rin tutuvchi ayollar obrazlariga ham e’tibor qaratilgan. Jumladan, Odam Ato bilan Momo Havo, Ibrohim payg‘ambar bilan Sora, Ismoil payg‘ambar bilan uning onasi Hojar, Yusuf bilan Zulayho, Iso payg‘ambarning onasi Maryam, Muhammad Rasulullo bilan Xadicha va Oyisha obrazlari o‘ziga xos badiiy tasvirlar orqali yoritilgan.

Har ikki jildda jami yigirma to‘qqiz nafar payg‘ambar va tarixiy shaxs haqida alohida qissalar berilgan. Ularda qahramonlarning hayoti va faoliyati hadislar, Sharq rivoyatlari hamda hikmatlar vositasida bayon etilgan. Qur’oni karim oyatlarining keltirilishi asarning diniy manbalar bilan uzviy aloqasini namoyon etadi. Ikkinchi jildda ham ko‘plab oyat va hadislardan foydalanilgan.

Shuningdek, asarda rivoyatlar va hikmatlar orqali farishtalar bilan parilar, obidlar bilan zohidlar o‘rtasidagi farqlar, Ya’juj va Ma’juj haqidagi tasavvurlar ham yoritilgan. Bu kabi lavhalar o‘rta asr turkiy adabiyotida diniy qarashlar, xalq og‘zaki ijodi va badiiy tafakkurning o‘zaro aloqasini o‘rganish uchun muhim material hisoblanadi.

Asarda mis, simob, temir va oltin kabi moddalarning tilga olinishi ham e'tiborga molik. Bunday ma'lumotlar o'rta asr kishilarining tabiat, moddiy olam va turli moddalarning xususiyatlariga doir tasavvurlarini o'rganishda muayyan ahamiyatga ega. Biroq mazkur moddalar haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy kimyoviy bilimlar bilan tenglashtirishda tarixiy kontekstni hisobga olish zarur.

Sharq manbalarida Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan shaxsning Aleksandr Makedonskiy bilan aynan bir shaxs ekanligi masalasi uzoq vaqtdan beri ilmiy munozaralarga sabab bo'lib keladi. Zulqarnaynning tarixiy shaxs va adabiy obraz sifatidagi talqinlari, shuningdek, uning nomiga berilgan izohlar turli manbalarda bir-biridan farq qiladi.

Zulqarnayn haqidagi muhim manbalardan biri Qur'oni karimning "Kahf" surasi 83–98-oyatlaridir [Qur'oni karim, 1992]. Ushbu oyatlarda Zulqarnaynning turli hududlarga qilgan safarlari, u yerda uchratgan qavmlar bilan munosabati va Ya'juj hamda Ma'jujga qarshi to'siq qurishi haqida hikoya qilinadi. Rabg'uziy ham o'z asarida Zulqarnayn obrazini yoritishda Qur'oni karimdagi mazkur qissaga murojaat qiladi. Jumladan, uning avval mag'ribga, so'ngra mashriqqa yo'l olgani bayon etiladi.

Rabg'uziy Zulqarnayn nomining ma'nosini izohlar ekan, uning ikki shox bilan bog'liq talqinini keltiradi. Shuningdek, uning payg'ambar yoki Alloh tomonidan qo'llab-quvvatlangan podshoh bo'lganligi haqidagi turli qarashlarni bayon qiladi [Rabg'uziy, 2015]. Bu holat muallifning diniy rivoyatlar va turli talqinlarni bir asarda jamlaganini ko'rsatadi.

Qur'oni karimning "Kahf" surasi 84-oyatida Zulqarnaynga yer yuzida hukmronlik va maqsadlariga erishish uchun imkoniyatlar berilgani bayon etiladi [Qur'oni karim, 1992]. Mazkur oyat Zulqarnayn obrazining diniy manbadagi asosiy tavsiflaridan birini tashkil etadi.

Rabg'uziy asarining so'zboshisida o'zidan avval payg'ambarlar qissalariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilganini e'tirof etadi va bu mavzuda yangi fikr bildirish oson emasligini ta'kidlaydi. Muallifning bunday munosabati avvalgi ilmiy-adabiy merosga hurmat va o'z ijodiy faoliyatiga tanqidiy yondashuv sifatida talqin qilinishi mumkin.

Rabg'uziy Muhammad Rasulullohning hayoti va faoliyatini axloqiy hamda ma'naviy ibrat namunasi sifatida tasvirlaydi. Asarda Muhammad payg'ambarning boshqa hududlar bilan aloqalari, jumladan, Hindistonga islomni qabul qilishga da'vat etuvchi xat yuborgani haqidagi ma'lumot ham uchraydi. Bunday lavhalar asarda diniy munosabatlar bilan bir qatorda, hukmdorlar va turli xalqlar o'rtasidagi aloqalarga oid tasavvurlar ham aks etganini ko'rsatadi.

Tarixiy-badiiy matnlar tarjimasining zamonaviy nazariy asoslari

Zamonaviy tarjimashunoslikda badiiy matn tarjimasi til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish bilangina cheklanmay, tarixiy va madaniy ma'nolarni qayta ifodalash jarayoni sifatida ham talqin qilinadi. Ayniqsa, qadimiy yozma yodgorliklarni tarjima qilishda leksik birlikning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, uning matndagi vazifasi, tarixiy konteksti va madaniy mazmunini aniqlash zarur. Shu nuqtayi nazardan, "Qisasi Rabg'uziy"ni zamonaviy o'zbek tiliga o'girishda adekvatlik va ekvivalentlik

tamoyillarini tarixiy-lisoniy hamda funksional tahlil bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

J.Buts, J.Hedli va M.Abumar [Buts et al., 2022] madaniy xususiyatga ega birliklarni tarjima qilishda matn kontekstini hisobga olish va ularni faqat oldindan belgilangan madaniy kategoriyalar asosida tasniflash bilan cheklanmaslik kerakligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar matnshunoslik va korpus tahlilini kontekstual o‘qish bilan birgalikda qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv “Qisasi Rabg‘uziy”dagi arxaik so‘zlar, tarixiy nomlar, diniy tushunchalar va iboralarni tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Masalan, qadimiy matndagi so‘zning bugungi o‘zbek tilidagi muqobilini tanlashda uning alohida olingan lug‘aviy ma’nosigina emas, balki gap va qissa doirasidagi vazifasi ham tekshirilishi lozim.

Tarjimada madaniy birliklarni qayta ifodalash masalasi I.Chibani [Chibani, 2022] tomonidan ham o‘rganilgan. Tadqiqotda badiiy matndagi madaniy xususiyatga ega birliklarni tarjima qilishda funksional muqobil, madaniy muqobil va modulyatsiya kabi usullardan foydalanish tahlil qilinadi. Mazkur qarashlar tarixiy matn tarjimasida ham muhimdir: ayrim birliklarni zamonaviy o‘zbek tilidagi muqobili bilan berish mumkin bo‘lsa, tarixiy yoki diniy mazmunni to‘liq ifodalash uchun boshqa hollarda izoh, tavsifiy tarjima yoki asl shaklni saqlash talab etiladi. Demak, tarjima usulini tanlash birlikning xususiyati va matndagi vazifasiga bog‘liq bo‘lishi kerak.

Diniy-madaniy birliklarni tarjima qilishda ma’no aniqligi va izohning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. N.D. Arrasid va S.Sajarva [Arrasyid & Sajarwa, 2023] diniy mazmunga ega madaniy birliklarning tarjimasini o‘rganib, ayrim tushunchalarning boshqa til va madaniyatda to‘liq muqobilga ega bo‘lmasligi tarjimada ma’no siljishi yoki tushunish qiyinchiliklarini yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu xulosa “Qisasi Rabg‘uziy”dagi payg‘ambarlar, diniy shaxslar, islomiy tushunchalar va diniy formulalarni tarjima qilishda e’tiborga olinishi lozim. Bunday birliklarni izohsiz zamonaviy muqobil bilan almashtirish tarixiy-diniy mazmunning torayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ularni kontekstga qarab asl shaklida saqlash, izohlash yoki mazmunini tavsifiy tarzda ochib berish variantlari qiyosiy tahlil asosida tanlanishi kerak.

Arxaizmlar va istorizmlarni tarjima qilish ham tarixiy matnning o‘ziga xosligini saqlash bilan bog‘liq. M.F. Norova [Norova, 2023] Shekspir davri ingliz tilidagi arxaik va tarixiy birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasini ko‘rib chiqib, qadimiy matnning xususiyatlarini yetkazishda uning leksik va grammatik belgilarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Muallif arxaik birliklarni tarjima qilishda analog va ekvivalent muqobillarni tanlashga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvni “Qisasi Rabg‘uziy” materialiga tatbiq etganda, arxaik birlikni zamonaviy so‘z bilan almashtirishdan oldin uning tarixiy ma’nosi, grammatik vazifasi va badiiy kontekstdagi o‘rni aniqlanishi lozim. Agar zamonaviy muqobil tarixiy ma’noni to‘liq qamrab olmasa, izohli tarjima yoki asl birlikni saqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotlarning nazariy qarashlari “Qisasi Rabg‘uziy” tarjimasini tahlil qilishda bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlarni belgilaydi: kontekstual-semantik tahlil tarixiy so‘zlarning ma’nosini aniqlashga, madaniy birliklarni tarjima qilish nazariyasi muqobil tanlashga, diniy terminlar bo‘yicha tadqiqotlar esa izohlash va asl shaklni

saqlash zaruratini asoslashga xizmat qiladi. Biroq ushbu yondashuvlar boshqa tillar va matnlar materialida ishlab chiqilganligi sababli ularni “Qisasi Rabg‘uziy”ga tayyor yechim sifatida emas, balki asarning tarixiy-lisoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llanadigan nazariy mezonlar sifatida qabul qilish lozim. Shu asosda tarjima qarorlari leksik ma’no, grammatik tuzilish, diniy-madaniy mazmun va badiiy-uslubiy xususiyatlarning o‘zaro munosabati bo‘yicha baholanishi mumkin.

TADQIQOT METODLARI

XIV asr boshlariga oid “Qisasi Rabg‘uziy” asarini zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girish o‘ziga xos ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki, ushbu asarda qadimgi turkiy til xususiyatlari, xalqona nutq unsurlari va islomiy adabiyot an’analari o‘zaro uyg‘unlashgan.

Asarni zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida tarixiy matnning mazmuni, til xususiyatlari va badiiy-uslubiy o‘ziga xosligini saqlashga qaratilgan metodik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarining qo‘llanilishi qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida leksik birliklar, terminlar va boshqa til birliklarining semantik, lingvistik hamda funksional xususiyatlari qiyoslandi, ularning zamonaviy o‘zbek tilidagi muqobillari va tarjimada moslik darajasi tahlil qilindi.

Adekvatlik tamoyili tarjimaning asliyat mazmuni, kommunikativ maqsadi va funksional xususiyatlariga muvofiqligini ta’minlashga qaratiladi. Ushbu tamoyil asosida tarixiy matnning mazmuni zamonaviy o‘zbek tilida qayta ifodalanayotganda muallifning maqsadi va asarning uslubiy xususiyatlarini saqlashga e’tibor beriladi.

Ekvivalentlik tamoyili asliyat va tarjima o‘rtasidagi mazmuniy hamda funksional muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. “Qisasi Rabg‘uziy”ni tarjima qilishda bu tamoyil tarixiy so‘zlar, iboralar va matn birliklarining ma’nosini imkon qadar aniq yetkazish, ularning kontekstual xususiyatlarini saqlash orqali namoyon bo‘ladi. Ekvivalentlik har doim ham so‘zma-so‘z moslikni anglatmaydi; ayrim hollarda mazmunni to‘g‘ri yetkazish uchun grammatik va leksik o‘zgarishlar talab etiladi.

Pragmatik adekvatlik tarjimada matnning kommunikativ maqsadi, o‘quvchining bilim darajasi hamda tarixiy-madaniy kontekstni hisobga olishni nazarda tutadi. Bunda tarjimon nafaqat matn mazmunini, balki uning kimga, qanday sharoitda va qanday maqsadda yaratilganini ham hisobga oladi. Ushbu yondashuv tarixiy matnni zamonaviy kitobxon uchun tushunarli shaklda taqdim etish bilan birga, asliyatning mazmuniy va uslubiy xususiyatlarini saqlashga xizmat qiladi.

Masalan, asar muqaddimasida keltirilishicha, “Qisasi Rabg‘uziy” Xorazmdagi Raboti O‘g‘uz hududining qozisi Burhonuddin o‘g‘li Nosiruddin Rabg‘uziy tomonidan Nosiruddin To‘qbug‘aning iltimosiga binoan hijriy 709-yilda, milodiy 1309-1310-yillarda yozilgan. Mazkur ma’lumotni zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girishda tarixiy shaxslarning ismlari, mansablari, joy nomlari va sanalarning aniqligini saqlash muhimdir.

Leksik moslashtirish metodlari (so‘z ustida ishlash)

Arxaik so‘zlarni almashtirish. Asar tilida uchraydigan ayrim so‘zlar bugungi

kitobxon uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida ba’zi so‘zlar iste’moldan chiqqan, ayrimlarining ma’nosi esa o‘zgargan. Shu sababli qadimiy turkiy so‘zlarni zamonaviy o‘zbek tilidagi muqobillari bilan almashtirishda ularning tarixiy va kontekstual ma’nosini aniqlash zarur. Agar so‘zning zamonaviy muqobili asliyat mazmunini to‘liq ifodalasa, undan foydalanish mumkin. Biroq tarixiy-madaniy ma’noga ega birliklarni shunchaki almashtirish asliyatdagi mazmuniy nozikliklarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda izoh berish yoki so‘zni asl shaklida saqlash maqsadga muvofiq (1- va 2-jadvallarga qarang):

1-jadval.

Arxaik so‘zlarni almashtirish

Chig‘atoy tilida	O‘zbek tilida
abushqa	keksa kishi
tishi	ayol
ud, uy	sigir
to‘ra	qonun, qoida
ruxom	marmar tosh
rishva	pora
savma	xristianlar ibodatxonasi, monastr
qushlug‘ oshi	nonushta
adiz	baland, yuqori
Taky qilmoq	yostiqqa suyanmoq
arig‘	sof, toza, beg‘ubor

2-jadval.

Ilmga oid arxaik so‘zlarni almashtirish

Chig‘atoy tilida	O‘zbek tilida
aqron	sayyora
baqir	mis
Saqit	Zuhra, Venera
tuch	bronza

Semantik transformatsiya metodi shakli saqlangan, biroq tarixiy taraqqiyot jarayonida ma’nosi o‘zgargan so‘zlarni aniqlash va ularni kontekst asosida talqin qilishni nazarda tutadi. Bunday hodisalarni, xususan, shevalarda uchratish mumkin. Masalan, “Qisasi Rabg‘uziy”da *yig‘lamoq* fe’li ayrim kontekstlarda nolish va shikoyat qilish mazmunini ham ifodalashi mumkin. *Arig‘* so‘zining ma’nosini aniqlashda ham uning tarixiy qo‘llanishi va shevalardagi ma’no xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Diniy-tasavvufiy atamalarni transkripsiya qilish va izohlash. Payg‘ambarlar tarixi hamda islomiy tushunchalarga oid arabcha va forscha birliklarni tarjimada saqlash, zarur hollarda esa satr osti izohlari yoki lug‘at orqali sharhlash asarning tarixiy-madaniy xususiyatlarini yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, asarda uchraydigan *“Aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbo‘g‘a sabbatallohu alo dinil-islom va salomuhu”* jumlasidagi diniy ifoda izoh bilan berilishi mumkin. Keltirilgan iboraning mazmunini aniq belgilashda uning asl yozilishi va kontekstini tekshirish lozim.

Grammatik o‘girish metodlari

Kelishik va egalik qo‘shimchalarini zamonaviylashtirish. Qadimgi turkiy tilga xos kelishik va egalik shakllarini zamonaviy o‘zbek tili me’yorlariga muvofiqlashtirish tarjimaning tushunarliligini oshiradi. Jumladan, tushum kelishigining *-nig/-ni* va jo‘nalish kelishigining *-g‘a/-ga* shakllari matnning grammatik qurilishi hamda kontekstiga qarab zamonaviy adabiy til shakllarida ifodalanadi. Bunda tarixiy grammatik xususiyatlarni asossiz ravishda yo‘qotmaslik muhimdir.

Qadimiy fe’l shakllarini zamonaviylashtirish. Qadimgi turkiy tildagi *-mish* shaklli fe’llarni zamonaviy o‘zbek tiliga o‘girishda kontekstual ma’no va zamon munosabatlari hisobga olinadi. Zaruratga ko‘ra, ular *-gan* yoki *-ibdi* shakllari bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, *bo‘lmish* shakli kontekstga qarab *bo‘lgan* yoki *bo‘libdi* tarzida beriladi. Bunday almashtirishda fe’lning zamon, aspekt va uslubiy ma’nolari saqlanishi kerak.

Sintaktik soddalashtirish. Asarda uchraydigan murakkab sintaktik qurilmalar va ko‘p bosqichli ergash gaplarni zamonaviy o‘zbek tilining me’yorlariga moslashtirish matnni o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Bunda uzun jumlalarni mazmunan yaxlit qismlarga ajratish, gap bo‘laklari o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniq ifodalash hamda muallif fikrining izchilligini saqlashga e’tibor qaratiladi.

Matn uslubini saqlash usullari

Saj’ – nasriy qofiyani ifodalash. “Qisasi Rabg‘uziy” nasriy asar bo‘lishiga qaramay, unda ohangdorlik, ritm va qofiyadosh birliklardan foydalanilgan. Tarjima jarayonida ushbu badiiy xususiyatlarni imkon qadar saqlash asarning uslubiy o‘ziga xosligini qayta yaratishga yordam beradi. Masalan, asarda uchraydigan *“Beklar urug‘i, yigitlar arig‘i, ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorig‘liq, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiriddin To‘qbo‘g‘a”* kabi ifodalar saj’ va tovush uyg‘unligining namunasi sifatida keltirilgan [Rabg‘uziy, 2013].

Bunday nasriy qofiyali birikmalarni tarjimada imkon qadar asl shaklida saqlash, zarur hollarda esa izohlar bilan ta’minlash maqsadga muvofiq. Masalan, *arig‘* so‘zi kontekstga qarab “sof”, “toza” yoki “beg‘ubor”; *himmeti adiz* birikmasi “him mati yuksak”; *aqli tegiz* esa “aqli teran” ma’nolarida izohlanishi mumkin. Biroq ushbu muqobillarni asarning tegishli konteksti asosida tekshirish zarur.

Hikoya janri xususiyatlarini saqlash

“Qisasi Rabg‘uziy” qissalardan tashkil topgani sababli tarjimada hikoyaviy bayon, jonli dialoglar va qahramonlar nutqining o‘ziga xosligini saqlash muhimdir. Dialoglarni zamonaviylashtirishda qahramonlarning nutqiy xususiyatlari, muloqot vaziyati va matnning badiiy ta’sirchanligi hisobga olinadi. Shu tariqa tarixiy matnning mazmuni zamonaviy o‘quvchiga tushunarli yetkaziladi, ayni paytda asarning badiiy tabiati saqlanadi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, “Qisasi Rabg‘uziy”da bugungi Xorazm shevasida uchraydigan ayrim so‘zlarga o‘xshash leksik birliklar mavjud. Bunday birliklarni o‘rganish tarixiy turkiy til bilan zamonaviy o‘zbek shevalari o‘rtasidagi leksik

aloqalarni aniqlashga yordam berishi mumkin. Biroq ularning tarixiy davomiyligi va ma’no munosabatlarini belgilash uchun qiyosiy-lisoniy tahlil talab etiladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida Xorazm shevasida bugungi kunda mavjud so‘zlar

Qadimiy chig‘atoy tilida	Xorazm shevasida	adabiy tilidagi ma’nosi
Sizloq	sizloq, sizlovuq	tish og‘rig‘i
Tangmoq	tangmoq	o‘ramoq
Navmid	navmid	umidsiz, noumid
Iya	iya	ega, sohib
Xarbuz	xarvuz	tarvuz
Chanoq	chanoq	temir idish
Daf (dap)	Daf (dap)	doira, nog‘ora
sichak	secha	chumchuq
buz	buz	muz
Bodiya	Bodiya – palov uchun maxsus idish	cho‘l, dasht, sahro
ovuch	ovuch	hovuch
ashoq	ashoq	past
avlo	avlo	yaxshiroq, afzalroq
kezik	gazik	navbat
qo‘ndog‘lab	qo‘ndoqlab	yo‘rgaklab
yobon	yovon	qishloq
o‘kcha	o‘kcha	tovon
amurd	almurud	nok turi

NATIJALAR VA MUNOZARA

Darhaqiqat, bu asar sharqona qadriyatlarimiz bilan hamohangdir. Undagi rivoyat va hikmatlar xalqimiz hayotining mazmun-mohiyatini, ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat bilan yashashga intilishini aks ettiradi. Payg‘ambarlar haqidagi qissalarning har birida insonni ezgulikka, diyonatga va imon-e’tiqodga chorlovchi muhim hikmatlar mujassam.

Asarning badiiy xususiyatlari ham o‘ziga xos. Uni janr nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, nasriy asar tarkibida lirik janr namunalari ham mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, asarning birinchi kitobida keltirilgan “Bayt. Bahoriyot. Mavlono Nosiruddin Rabg‘uziy” sarlavhali Navro‘z haqidagi she’r bunga misol bo‘la oladi. Shuningdek, asarda g‘azal va musallas kabi lirik janrlar ham qo‘llanilgan.

Payg‘ambarlar haqidagi qissalarda kichik epik janrlarga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, “hikoyat”, “foyda”, “xabar”, “latifa”, “munojot”, “hikmat”, “savol-javob”, “rivoyat” va “bashorat” kabi janrlarni kuzatish mumkin. Rabg‘uziy arab adabiyotida qo‘llanilgan ko‘plab janr shakllarini turkiy adabiyotda namoyon etgan ijodkorlardan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin. Bu janrlarning ayrimlari keyingi davr adabiyotida yanada rivojlantirilib, badiiy jihatdan takomillashtirilgan.

Jumladan, g‘azal, musallas va qasida kabi janrlar Rabg‘uziy ijodida ham uchraydi. Keyingi davrlarda esa ular Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy va Ogahiy kabi

ijodkorlar asarlarida yanada takomillashdi.

Biroq “Qisasi Rabg‘uziy”da qo‘llanilgan barcha janrlar keyingi davr adabiyotida birdek keng tarqalmagan. Rabg‘uziy deyarli har bir qissada qo‘llagan ayrim janrlar, jumladan, “foyda” va “xabar” keyingi adabiy an’analarda avvalgi shaklida saqlanib qolmagan. Asardagi “xabar” janrining mazmuni bugungi jurnalistikada qo‘llaniladigan xabar janridan farq qiladi. Xuddi shuningdek, Rabg‘uziy qo‘llagan “latifa” janrining xususiyatlari ham hozirgi adabiyotdagi latifa janri bilan to‘liq mos kelmaydi. Ushbu janrlarni qiyosiy o‘rganish adabiy janrlarning tarixiy taraqqiyotini, shuningdek, ayrim matn shakllarining keyinchalik jurnalistika kabi mustaqil sohalarda qo‘llanila boshlaganini anglashga yordam beradi. “Foyda” janri esa Qur’oni karim mazmunini izohlash va hadislarni sharhlash jarayonlarida uchraydigan tushuntiruvchi bayon shakllari bilan qiyosiy o‘rganilishi mumkin.

Tarjima qarorlarining semantik, pragmatik va lingvopoetik asoslari

“Qisasi Rabg‘uziy” asarini zamonaviy o‘zbek tiliga tarjima qilishda adekvatlik va ekvivalentlik tamoyillarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash zarur. Tarjima jarayoni faqat so‘zlarning muqobilini topish bilan cheklanmay, tarixiy kontekst, grammatik xususiyatlar, diniy-madaniy mazmun va badiiy uslubni ham qamrab oladi. R.Yakobson [Jakobson, 1959] tarjimani tillararo verbal talqin sifatida izohlasa, Y.Nayda [Nida, 1964] formal va dinamik ekvivalentlik o‘rtasidagi farqni asoslaydi. Bu yondashuvlar qadimiy birliklarni tarjima qilishda shakliy muvofiqlik va mazmuniy tushunarlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yordam beradi.

J.Katford [Catford, 1965], J.P. Vine va J.Darbelne [Vinay & Darbelnet, 1995], shuningdek, P.Nyumark [Newmark, 1988] tarjimada grammatik va leksik transformatsiyalarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu qarashlar asosida qadimiy turkiy tilga xos shakllarni zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirishda ularning kontekstual ma’nosi saqlanishi lozim. Masalan, arig‘ kabi arxaik birliklarning muqobilini tanlashda lug‘aviy ma’no bilan birga, matndagi uslubiy vazifa ham hisobga olinishi kerak. M.Beyker [Baker, 2018] ham ekvivalentlikni turli lingvistik darajalarda yuzaga keladigan muammo sifatida izohlaydi.

Y.Xaus [House, 2015, 2016, 2024], K.Nord [Nord, 1997, 2018] va B.Xatim hamda Y.Meyson [Hatim & Mason, 1997] tarjimani funksional, pragmatik va diskursiv jihatlardan o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv “Qisasi Rabg‘uziy”dagi hikoyaviy bayon, dialoglar va diniy murojaatlarni faqat lug‘aviy mazmun asosida emas, balki ularning matndagi vazifasi orqali ham tahlil qilish imkonini beradi. L.Venuti [Venuti, 1995, 2019, 2021] va G.Turi [Toury, 1995] qarashlari esa tarixiy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash hamda zamonaviy til me’yorlariga moslashish o‘rtasidagi munosabatni yoritadi.

E.Pim [Pym, 2010, 2014], J.Mande [Munday, 2016] hamda K.Rays va X.Fermeer [Reiss & Vermeer, 2014] yondashuvlari tarjima qarorlarini ularning maqsadi va natijasi bilan bog‘liq holda baholashga asos beradi. Tarixiy matn tarjimasida zamonaviy kitobxon uchun tushunarlilikni oshirish muhim, biroq bu jarayon asliyat mazmuni va badiiy xususiyatlarining yo‘qolishiga olib kelmasligi kerak. X.Boshxoten va A.O’keyn [Boeschoten & O’Kane, 2015] nashri hamda E.I. Fozilov [Fozilov, 2013]ga

oid tadqiqotlar asarning tarixiy-lisoniy xususiyatlarini o‘rganishda muhim manbalar sifatida qaralishi mumkin. Diniy birliklar tarjimasiga oid N.D. Arrasid va S.Sajarva [Arrasyid & Sajarwa, 2023] hamda arxaik leksika bo‘yicha M.F. Norova [Norova, 2023] ishlari esa muqobil tanlash, izohlash va asl shaklni saqlash masalalarini tahlil qilishga yordam beradi.

Umuman, “Qisasi Rabg‘uziy” tarjimasini baholashda beshta mezon muhim: semantik aniqlik, grammatik muvofiqlik, pragmatik tushunarlilik, lingvopoetik yaxlitlik va tarixiy-madaniy muvofiqlik. Arxaik birlikning zamonaviy muqobili uning ma’nosini to‘liq ifodalamasa, izohli tarjima yoki asl shaklni saqlash usulidan foydalanish mumkin. Saj, hikoyaviy ohang va diniy-madaniy birliklarni tarjima qilishda esa matnning badiiy hamda tarixiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Demak, adekvatlik tarjimaning umumiy kommunikativ vazifasini, ekvivalentlik esa manba va tarjima matnlari o‘rtasidagi mazmuniy-funksional muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qadimiy badiiy asarlarni tarjima qilishda adekvatlik, xususan, pragmatik adekvatlik, lingvistik ekvivalentlik, leksik moslashtirish, arxaik so‘zlarni zamonaviy muqobillari bilan almashtirish, semantik transformatsiya hamda diniy-islomiy atamalarni transkripsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Semantik transformatsiya jarayonida shakli saqlangan, biroq ma’nosi o‘zgargan so‘zlarni aniqlash va ularni kontekst asosida talqin qilish talab etiladi. Payg‘ambarlar tarixi va islomiy tushunchalarga oid arabcha-forscha atamalarni esa asl shaklida saqlab, zarur hollarda izoh yoki ilovada sharhlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tarjimada grammatik o‘girish usullariga, jumladan, chig‘atoy tilidagi kelishik va egalik qo‘shimchalarini zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirish, qadimiy fe’l shakllarini kontekstga muvofiq o‘girish hamda murakkab sintaktik qurilmalarni soddalashtirishga e’tibor qaratiladi. Asar uslubini saqlashning muhim vositalaridan biri esa saj, ya’ni nasriy qofiyalash xususiyatlarini imkon qadar qayta ifodalashdir.

Adekvatlik va ekvivalentlik qadimiy asarlar tarjimasining muhim ilmiy-nazariy tamoyillari bo‘lib, ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi tarjima sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Adekvatlik tarjimada mazmun, shakl, uslub va kommunikativ maqsadning muvozanatli ifodalanishini ta’minlasa, ekvivalentlik manba matn bilan tarjima o‘rtasidagi lingvistik va funksional muvofiqlikni saqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari qadimiy matnlarni tarjima qilishda grammatik va leksik to‘g‘rilikni ta’minlash bilan bir qatorda, mazmunni kitobxon uchun tushunarli va kontekstga muvofiq tarzda yetkazish ham zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bois qadimiy turkiy, jumladan, chig‘atoy tilidagi matnlarni zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirishda adekvatlik va ekvivalentlikka asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanish tarjima samaradorligini oshirish, tarixiy-madaniy mazmunni saqlash hamda terminologik birliklarni aniq va milliy-madaniy xususiyatlarga muvofiq yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida hozirgi Xorazm shevasida ham uchraydigan ko‘plab so‘zlarni kuzatish mumkin. Jumladan, Rabg‘uziy qo‘llagan *ushoq* so‘zi “kichik”, “mayda” ma’nolarini anglatadi. Ushbu so‘z Xorazm shevasida bugungi kunda ham kichik jussali bolalarga nisbatan, shuningdek, non ushoqlarini ifodalashda qo‘llaniladi. Bu holat ayrim qadimiy leksik birliklarning shakli yoki ma’nosi muayyan darajada saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Biroq bunday so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti va hozirgi shevadagi semantik xususiyatlarini aniqlash uchun qiyosiy-lingvistik tahlil zarur.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, N.Rabg‘uziyning payg‘ambarlar haqidagi qissalarini o‘zida mujassam etgan “Qisasi Rabg‘uziy” badiiyati, tili, tarixiy va ma’rifiy ahamiyati bilan alohida e’tiborga loyiq yozma yodgorlikdir. Rabg‘uziyning o‘z ta’biri bilan aytganda, asar guvar (gavhar), dur va yinju (inju) singari qimmatbaho ma’naviy xazinadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arrasyid, N. D., & Sajarwa, S. (2023). The resistance and negotiation of religious culture-specific terms in translating novel *Cantik Itu Luka* from Indonesian to French. *PAROLE: Journal of Linguistics and Education, 13*(2), 61–69.
2. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). London: Routledge.
3. Boeschoten, H.E., & O’Kane, J. (Eds.). (2015). *The stories of the prophets (2 vols.): Qiṣaṣ al-Anbiyā’: An Eastern Turkish version* (2nd ed.). Leiden: Brill.
4. Buts, J., Hadley, J., & Aboomar, M. (2022). Keyness, context, and cultural specificity in indirect translation. *transLogos Translation Studies Journal, 5*(1), 1–21.
5. Fozilov, E.I. (2013). “Qisasi Rabg‘uziy” asariga so‘zboshi (R.Zaripova va N.Sa’dullayeva, nashr. tayyorl.). Toshkent: Sharq.
6. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
7. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. Abingdon: Routledge.
8. House, J. (2016). *Translation as communication across languages and cultures*. London: Routledge.
9. House, J. (2024). *Translation: The basics* (2nd ed.). London: Routledge.
10. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R.A. Brower (Ed.), *On Translation* (pp. 232–239). Cambridge, MA: Harvard University Press.
11. Catford, J.C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. London: Oxford University Press.
12. Munday, J. (2016). *Introducing translation studies: Theories and applications* (4th ed.). London: Routledge.
13. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. New York, NY: Prentice Hall.
14. Nida, E.A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. Leiden: E.J. Brill.
15. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome Publishing.
16. Nord, C. (2018). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (2nd ed.). New York, NY: Routledge.
17. Norova, M. F. (2023). Difficulties in translating archaisms and historicisms. *International Journal of Literature and Languages, 3*(10), 11–18.
18. Pym, A. (2010). *Exploring translation theories*. London: Routledge.
19. Pym, A. (2014). *Exploring translation theories* (2nd ed.). Hoboken, NJ: Routledge.
20. Qur’oni karim. (1992). *Qur’oni karim: O‘zbekcha izohli tarjima* (A.Mansur, Tarj.). Toshkent: Sharq yulduzi.
21. Rabg‘uziy, N.B. (1991). *Qisasi Rabg‘uziy* (2-kitob; A.Yunusov, H.Dadaboyev, & E.I. Fozilov, nashr. tayyorl.). Toshkent: Yozuvchi.

22. Rabg'uziy, N.B. (2013). *Qisasi Rabg'uziy* (R.Zaripova & N.Sa'dullayeva, nashr. tayyorl.). Toshkent: Sharq.
23. Rabg'uziy, N.B. (2015). *Qisasi Rabg'uziy* (R.Zaripova & N.Sa'dullayeva, nashr. tayyorl.). Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
24. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (2014). *Towards a general theory of translational action: Skopos theory explained* (C.Nord, Trans.). London: Routledge.
25. Toury, G. (1995). *Descriptive translation studies and beyond*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
26. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. London: Routledge.
27. Venuti, L. (2019). *Contra instrumentalism: A translation polemic*. Lincoln, NE: University of Nebraska Press.
28. Venuti, L. (Ed.). (2021). *The translation studies reader* (4th ed.). Abingdon: Routledge.
29. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J.C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
30. Chibani, I. (2022). Procedures used in the translation of culture specific items in Moroccan literary texts: Lu'bat al-Nisyan as a case study. *International Journal of Language and Literary Studies, 4*(3), 342–358.

REFERENCES

1. Arrasyid, N.D., & Sajarwa, S. (2023). The resistance and negotiation of religious culture-specific terms in translating novel *Beauty Is a Wound* from Indonesian to French. *PAROLE: Journal of Linguistics and Education, 13*(2), 61–69.
2. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). London: Routledge.
3. Boeschoten, H.E., & O'Kane, J. (Eds.). (2015). *The stories of the prophets (2 vols.): Qiṣaṣ al-Anbiyā': An Eastern Turkish version* (2nd ed.). Leiden: Brill.
4. Buts, J., Hadley, J., & Aboomar, M. (2022). Keyness, context, and cultural specificity in indirect translation. *transLogos Translation Studies Journal, 5*(1), 1–21.
5. Catford, J.C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. London: Oxford University Press.
6. Chibani, I. (2022). Procedures used in the translation of culture-specific items in Moroccan literary texts: *Lu'bat al-Nisyan* as a case study. *International Journal of Language and Literary Studies, 4*(3), 342–358.
7. Fozilov, E.I. (2013). *Foreword to Qisas-i Rabghuzi* (R.Zaripova & N.Sadullayeva, Eds.). Tashkent: Sharq.
8. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
9. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. Abingdon: Routledge.
10. House, J. (2016). *Translation as communication across languages and cultures*. London: Routledge.
11. House, J. (2024). *Translation: The basics* (2nd ed.). London: Routledge.
12. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R.A. Brower (Ed.), *On Translation* (pp. 232–239). Cambridge, MA: Harvard University Press.
13. Munday, J. (2016). *Introducing translation studies: Theories and applications* (4th ed.). London: Routledge.
14. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. New York, NY: Prentice Hall.
15. Nida, E.A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. Leiden: E.J. Brill.
16. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome Publishing.
17. Nord, C. (2018). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (2nd ed.). New York, NY: Routledge.
18. Norova, M.F. (2023). Difficulties in translating archaisms and historicisms. *International*

Journal of Literature and Languages, 3(10), 11–18.
19. Pym, A. (2010). *Exploring translation theories*. London: Routledge.
20. Pym, A. (2014). *Exploring translation theories* (2nd ed.). Hoboken, NJ: Routledge.
21. Rabghuzi, N.B. (1991). *Qisas-i Rabghuzi* (Vol. 2; A.Yunusov, H.Dadaboyev, & E.I. Fozilov, Eds.). Tashkent: Yozuvchi.
22. Rabghuzi, N.B. (2013). *Qisas-i Rabghuzi* (R.Zaripova & N.Sadullayeva, Eds.). Tashkent: Sharq.
23. Rabghuzi, N.B. (2015). *Qisas-i Rabghuzi* (R.Zaripova & N.Sadullayeva, Eds.). Tashkent: Tashkent Islamic University Publishing and Printing Association.
24. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (2014). *Towards a general theory of translational action: Skopos theory explained* (C.Nord, Trans.). London: Routledge.
25. The Holy Qur'an. (1992). *The Holy Qur'an: An explanatory translation into Uzbek*. (1992). (A.Mansur, Trans.). Tashkent: Sharq Yulduzi.
26. Toury, G. (1995). *Descriptive translation studies and beyond*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
27. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. London: Routledge.
28. Venuti, L. (2019). *Contra instrumentalism: A translation polemic*. Lincoln, NE: University of Nebraska Press.
29. Venuti, L. (Ed.). (2021). *The translation studies reader* (4th ed.). Abingdon: Routledge.
30. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J.C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.